



THE PLACE AND SIGNIFICANCE OF TURKISH EDUCATIONAL PROGRAMS IN FOREIGN POLICY

Marjona Rakhmonova

master's student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: rmarjona78@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Soft power, Turkish Scholarships, YTB, public diplomacy, educational diplomacy.

Received: 28.04.24

Accepted: 30.04.24

Published: 02.05.24

Abstract: The importance of soft power in Turkey's foreign policy is reflected in a number of directions. In particular, state-sponsored educational scholarship programs for international students have been adopted. Due to the fact that the economic growth and development of the country directly depends on the qualified youth, many countries have redesigned their higher education systems in the global competitive environment. If we pay special attention to the example of Turkey, we can see that in recent years, strategic steps have been taken to strengthen the internationalization of Turkey's higher education system. In this regard, the article examines the main goals and future possibilities of the Turkish education system.

O'ZBEKİSTON VA OZARBAYJON: TOBORA "STRATEGIK CHUQURLIK" KASB ETIB BORAYOTGAN MUNOSABATLAR

Marjona Raxmonova

magistratura talabasi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: rmarjona78@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Yumshoq kuch, Turkiye Burslari, YTB, xalq diplomatiyasi, ta'lif diplomatiyasi.

Annotatsiya: Turkiya tashqi siyosatda yumshoq kuchning ahamiyati bir qator yo'naliishlarda o'z aksini topib kelmoqda. Jumladan, xalqaro talabalarga mo'ljallangan davlat tomonidan homiylik qilinadigan ta'lif

stipendiya dasturlari qabul qilindi. Davlatning iqtisodiy o'sishi va rivojlanishi malakali yoshlarga bevosita bog'liq bo'lganligi sababli, global raqobat muhitida ko'plab mamlakatlar oliv ta'lim tizimlarini qayta ishlab chiqdilar. Turkiya misoliga alohida e'tibor qaratsak, unda Turkiyaning so'nggi yillarda oliv ta'lim tizimini xalqarolashtirishni kuchaytirish uchun strategik qadamlar qo'yilgani ko'rishimiz mumkin. Shu munosabat bilan, maqola Turkiya ta'lim tizimining asosiy maqsadlari va kelajakdagi imkoniyatlarini ko'rib chiqadi.

МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ ТУРЕЦКИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОГРАММ ВО ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ

Марджона Рахмонова

студент магистратуры

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

E-mail: rmarjona78@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: «мягкая сила», турецкие стипендии, YTB, публичная дипломатия, образовательная дипломатия.

Аннотация: Важность мягкой силы во внешней политике Турции отражается в ряде направлений. В частности, были приняты финансируемые государством программы образовательных стипендий для иностранных студентов. В связи с тем, что экономический рост и развитие страны напрямую зависит от квалифицированной молодежи, многие страны перепроектировали свои системы высшего образования в глобальной конкурентной среде. Если мы обратим особое внимание на пример Турции, то увидим, что в последние годы были предприняты стратегические шаги по усилению интернационализации системы высшего образования Турции. В связи с этим в статье рассматриваются основные цели и будущие возможности турецкой системы образования.

KIRISH

Turkiya grantlari Turkiya Respublikasi tomonidan xalqaro talabalar uchun o'tkaziladigan davlat oliv ta'lim stipendiya dasturidir. Turkiya ta'lim dasturlarining asosiy maqsadi butun dunyo bo'ylab ilg'or talabalarga teng imkoniyatlar yaratish va ularning xalqaro standartlarda ta'lim olishini ta'minlashdan iborat. Bundan tashqari, Turkiya va boshqa davlatlar o'rtasida

o'zaro hamkorlikni rivojlantirish va ilmdan san'atga, iqtisodiyotdan adabiyotga, texnologiyadan me'morlikka qadar

ko'plab sohalarda mintaqaviy va global rivojlanishga hissa qo'shishni maqsad qilgan. Turkiya stipendiya dasturining (Turkiye Burslari) Turkiyaning yumshoq kuchini yaratish va tarqatishdagi ro'li katta ekanligi, Turkiya hukumati oliy ta'lim uchun stipendiyalar berish orqali o'z madaniyatini ommalashtirish va tarqatish hamda xalqaro o'yinchilar uchun o'zini yanada jozibador qilish borasida bir qancha yutuqlarga erishdi. Shuningdek, butun dunyo bo'ylab boshqa stipendiya dasturlari bilan bog'liq holda Turkiya Burslari raqobatbardoshligini oshirish uchun islohotlar olib borilmoqda. Turkiya stipendiyasini butun dunyodagi boshqa stipendiya dasturlari bilan solishtiradigan bo'lsak, keng qamrovli dasturlardan biri ekanligini aytishimiz mumkin.

ASOSIY QISM

Maqolada analiz, keys stadi va kuzatuv metodlaridan foydalanildi.

Xalq diplomatiyasi - bu madaniyat, san'at va adabiyot kabi faoliyatlar orqali iqtisodiy, siyosiy yutuqlarni qo'llab-quvvatlash uchun maqsadli auditoriyani maqsadli mamlakatga nisbatan ijobjiy tarzda tashkil etish uchun amalga oshiriladigan tadbirlar majmuidir. Ushbu faoliyatning muhim kichik tarmog'i ta'lim diplomatiyasidir. Turkiya stipendiyalari davlat tomonidan va jamg'armalar tarafidan bo'lganligi sababli xalq diplomatiyasi faoliyatidir. Diplomatiya ta'lim diplomatiyasi sohasida ta'riflangan bo'lsa-da, uni ishlab chiqarish va keng tarqalgan ta'sir nuqtai nazaridan jarayonda yumshoq kuch elementi sifatida ham ko'rib chiqish mumkin.

Madaniyat yumshoq kuchning muhim elementi bo'lib, jamiyatdagi muhim qadriyatlar va amaliyotlar tomonidan shakllantirilgan qadriyatlar to'plamidir. Madaniyat - ijtimoiy sohaning bir turi bu xulq-atvor sifatida tavsiflanadi va elitani jalb qiladigan adabiyot, san'at va ta'lim nuqtai nazaridan madaniyatning tarkibiy qismlari bilan shug'ullanadi (Joseph S. Nye 2005).

Madaniy elementlar xalq diplomatiyasi uchun juda muhim manba bo'lib, uning maqsadi dunyoga o'z mamlakati va uning tarixi haqida batafsil yoritib berishdir. Chunki, bu madaniy unsurlar obro'-e'tiborni oshiradi va yetarlicha tasvirlarni yaratadi. Shu nuqtai nazardan, xalq diplomatiyasi xorijiy davlatlar oldida o'z obro'sini oshirish uchun madaniy va talabalar almashinuvni, o'z ichiga oladi. Xalq diplomatiyasining xalqaro talabalar uchun faoliyatları, amalga oshiriladigam ishlari ta'lim diplomatiyasidir (Gündoğdu, 2021).

Ta'lim diplomatiyasi xalq diplomatiyasining muhim tarkibiy qismi bo'lib, davlatlar uchun yumshoq kuchidan samarali foydalanishlari va kerakli natijalarni qo'lga kiritishlari mumkin. Madaniy diplomatiyaning kichik toifasi sifatida qaralgan ta'lim diplomatiyasi endilikda alohida soha hisoblanib kelmoqda (Akar va Gürkaynak, 2022).

Turkiyadagi oliy o‘quv yurtlari soni ortib borishi bilan xalqaro talabalar soni ham yildan yilga ortib bormoqda. Ushbu o‘sish mamlakatga kelayotgan xorijlik talabalarning ko‘payishi bilan bog’liq. Turkiya tomonidan taqdim etilgan oliy ta’lim stipendiya dasturlari 2012-yilda “Turkiye Burslari” nomi bilan belgilandi va Chet eldag‘i Turklar va Qardosh Jamiyatlar Raisligi (YTB) tomonidan ish olib borila boshladi. YTB, Turk hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi (TIKA), Yunus Emre kabi davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan tashkilot, Turkiya Maarif jamg‘armasi, shuningdek, xalqaro stipendiyalar bilan ta’minlaydigan muassasalar Islom taraqqiyot banki (ITB) orqali kelgan talabalar soni muhim o‘rin tutadi. Shunga qaramay, YTB (2021) ma’lumotlariga ko‘ra, 165 511 talabgor Turkiya stipendiyalariga 178 ta davlatdan arizalar topshirdi. Bu esa, Turkiyaning xalqaro ta’lim sohasida tanlangan davlatlardan biri ekanligini ko‘rsatib berdi.

Turkiya ko‘p yillardan beri dunyoning turli burchaklaridan kelgan xalqaro talabalar va tadqiqotchilarga stipendiya imkoniyatlarini taqdim etib kelmoqda. Turkiya stipendiyalari mamlakatlar o‘rtasidagi ijtimoiy, madaniy, siyosiy va iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va rivojlantirishni ko‘zlagan holda xalqaro talabalarga Turkiyaning eng nufuzli universitetlarida ta’lim va stipendiya imkoniyatlarini taqdim etishni maqsad qilgan. Turkiya stipendiyalar uchun 2012-yilda 42 mingga yaqin ariza qabul qilgan bo‘lsa, yillar davomida arizalar soni tez o‘sib, 2022-yilda 171 turli davlatdan 165.500 ta arizaga yetdi. Turkiya stipendiyalari doirasida har yili 5000 ga yaqin xalqaro talabalarga stipendiya beriladi. Turkiya stipendiyalari dasturidan foydalananayotgan 15 000 nafar olim hozirda o‘qishni davom ettirmoqda.



YTBning o‘sha paytdagi rahbari, professor, doktor Kudret Bülbül bilan bo‘lgan suhbatda YTBning asosiy yo‘nalishlari va maqsadlari haqida quyidagicha ta’kidladi:

“O‘ylaymanki, nima uchun biz xalqaro talabalarga e’tibor qarayotganimizni yaxshilab tushuntirib bermoqchiman. YTB uchun uchta faoliyat sohasi mavjud. Birinchi va eng muhimmi kuchli turk diasporasiga ega bo‘lishdir. Ikkinchisi tarixiy va madaniy aloqada bo‘lgan hududlar bilan yaqindan hamkorlik qilish, uchinchisi esa Turkiyaning do‘stlarini oshirish”, deb ta’rif berdi. Bu suhbatdan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, Turkiya 2002 -yildan keyingi davrda

asosan mintaqaviy faollik va xalqaro ochilishga asoslangan yangi Turkiya tashqi siyosati yumshoq kuchning ajralmas qismi hisoblangan oliy ta'lim dasturlarini o'z ichiga oladi. Shuni ta'kidlash kerakki, Turkiya Burslariga bo'lgan e'tiborning ortishi umuman Turkiyaga e'tiborning ortishi bilan bog'liq. Turkiya o'zining rivojlangan iqtisodiyoti, yetuk demokratiyasi va inson huquqlari sohasidagi yaxshilanishlari bilan so'nggi 10-15 yil ichida taniqli davlatga aylandi. Bu sohalardagi muvaffaqiyat Turkiyaning diqqatga sazovor markazga aylanishiga yordam berdi. Turkiya Burslari vazifa va maqsadiga ko'ra, "mamlakatlar o'rtasida hamkorlik va jamiyatlar o'rtasida o'zaro aloqalarни mustahkamlashga, yangi imkoniyatlar ochish uchun eng muhim sohalardan biri hisoblanadi.

Turkiya hukumati oliy ta'lim stipendiyalari bilan ta'minlash orqali o'z madaniyatini yoyish va bo'lajak global lider bo'lish uchun ma'lum yutuqlarga erishganligini

ko'rsatadi. Turkiya davlati Turkiya Burslarini turli davlatlar orasida faol ishtirok etishini osonlashtiradigan yumshoq kuch vositasi deb biladi. Erdogan Hindistonga safari chog'ida hindistonlik talabalarni Turkiyaga o'qishga taklif qildi: "Biz dunyoning turli burchaklaridan Turkiyaga kelayotgan talabalarni quchoq ochib kutib olamiz".

"Turkiye burslari" tashqi siyosatda Turkiyaning mafkuraviy va amaliy quroli sifatida foydalaniladi. Boshqacha qilib aytganda, Turkiya o'zining stipendiya dasturini dunyo bo'y lab iqtidorli talabalarni jalb qilish uchun yetarlicha raqobatbardosh qilish uchun nafaqat ta'lim stipendiyalari bilan ta'minlashga, balki umuman ta'lim tizimining sifatiga e'tibor qaratdi. Shunday qilib, oliy ta'lim muassasalarining standartlarini oshirishga qaratilgan keng qamrovli ta'lim islohoti mustahkam va raqobatbardosh stipendiya dasturini muvaffaqiyatlama amalga oshirish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Turkiya stipendiyatlari Turkiyadagi ta'lim va xorijlik talabalar uchun yaratilgan imkoniyatlar haqida mammun bo'lib, o'z fikrlarini bildirishgan. Misol tariqasida ba'zi bir talabalarni fikrlarini ko'rib chiqamiz.

Nasruzzaman Naeem - Bangladesh - Istanbul savdo universiteti - Xalqaro moliya magistratura talabasi, "Istanbulga kelganimdan beri Istanbulning tabiiy go'zalliklariga, bu yerdagi tarix va madaniyatga, eng muhimi Istanbuldagi odamlarga, bizlarga yaratilgan sharoitlardan juda mamnun bo'ldim".

Abdulazizova Fozila- Turkiya burslari stipendiyasi sohibasi. "Turkiyada ta'lim olmoqchi bo'lgan xorijlik talabalar uchun juda katta imkoniyatlar yaratilgan. Universitet xarajatlari qoplanib, har oyda talabalar uchun stipendiya ham beriladi. Bundan tashqari bir martalik o'z yurtlariga borib kelish uchun yo'l xarajatlari ham qoplanib beriladi".

O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi ta’lim dasturlari ham yildan yilga kengayib bormoqda.O‘zbekistonlik talabalar uchun grantlar soni ortib bormoqda.

“O‘zbekiston siyosiy, iqtisodiy, madaniy va demografik omillarga ko’ra Markaziy Osiyoda yetakchi o‘rin tutadi. Ko‘hna madaniyat va muazzam tamaddun beshigi

bo‘lgan ushbu zamin bizning ota yurtimiz ekanini alohida ta’kidlashni istardim. Shu bois ham bir qardosh O‘zbekiston bilan hamkorlikka alohida e’tibor qaratamiz”, – deydi YTB rahbari Abdulloh Eren.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, oliy ta’lim stipendiyasining ta’sis etilishi Turkiya oliy ta’lim muassasalarining talabchanligini oshirish va uning yumshoq kuch salohiyatini kengaytirish yo‘lidagi qadamdir. Ta’lim almashinuvi davlatning madaniy qadriyatlarini ko‘rsatishda va butun dunyo bo‘ylab hukumatlar bilan munosabatlarni o’rnatish va mustahkamlashga harakat qilmoqda. Bundan tashqari, oliy ta’lim stipendiyasi davlatlar o‘zlarining yumshoq kuchlarini global miqyosda yaratish va loyihalash uchun foydalanadigan vositalardan biridir.

Turkiya o‘z imidji va madaniyatini chet elda tarqata oldi. Turkiya Burslari raqobatbardosh bo‘lishi va kengroq Turkiya tashqi siyosati maydonida qo‘yilgan maqsadlarni qondirish uchun ta’lim tizimi xalqaro talabalarni qondirish uchun yanada yangi bosqichlarda ish olib borilmoqda. Aynan shu nuqtai nazardan Turkiya Burslari oldida turgan muammolar, imkoniyatlar har tomonlama o‘rganilib e’tibor berib kelinmoqda. Ushbu umumiy muammolarni hal qilishda jiddiy e’tibor talab qiladigan o‘ziga xos sohalardan biri bu ta’lim tilidir. Yuqorida bat afsil bayon etilgan sa'y-harakatlar va ijobjiy tendentsiyalar Turkiyaning xalqaro oliy ta’lim sohasida maqsadiga erishish salohiyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi. Turkiya o‘z fuqarolari uchun oliy ta’limga kirishni osonlashtirdi; boshqa tomondan, xalqaro oliy ta’lim tarmog’ida muhim xalqaro markazga aylanish maqsadida bir qancha loyihalarni amalga oshirdi. Bu borada universitetlar, siyosiy rahbarlik va boshqa muassasa va tashkilotlar birdamlikda, bu sohada muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan mashaqqatli mehnat bilan shug’ullanishga tayyor. Bu kelajak uchun juda istiqbolli yo‘l hisoblanadi.Turkiyaning mintaqasi va dunyoning muhim aktyori sifatidagi buyuk maqsadlarini hisobga olsak, dunyoning eng ko‘zga ko‘ringan intellektual markazlaridan biriga aylanishi zarurdir. Shu sababli, oliy ta’limni xalqaro tajribani hisobga olgan holda, keng ko‘lamli loyihalarni boshlash va Turkiyaning yo‘l xaritasini yanada porloq kelajak uchun yuqoriroq, ammo hali ham erishish mumkin bo‘lgan maqsadlarni o‘z ichiga olgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Joseph S. Nye, Soft Power: (2005).The Means to Succeed in World Politics, New York, Public Affairs, 2004.
2. Gündogdu, S. (2021). Türk dış politikasında yumuşak güç ve kamu diplomasisi kurumlar ve uygulamalar (2002-2013). Nobel Yayınları.
3. Akar, E. & Gürkaynak, M. (2022). Ülke markalama bağlamında Türkiye'nin eğitim diplomasisine yönelik bir değerlendirme. İletişim ve Diplomasi, (Kamu Diplomasisi ve Ülke Markalama Özel Sayısı), 137-164,
4. <https://ytb.gov.tr/daireler/uluslararası-öğrenciler/turkiye-bursları>
5. TİKA - Türk İşbirliği ve Koordinasyon Ajansı Başkanlığı <https://www.tika.gov.tr/tr>
6. <https://www.turkiyebursları.gov.tr/hakkımızda>
7. <https://www.xabar.uz/talim/turkiya-ozbekistonlik-iqtidorli-yosh>
8. Bulent Aras and Zulkarnain Mohammed. (2018) The Turkish government
9. scholarship program as a soft power tool
10. Mamadjonov, A. B. (2023). ANALYSIS OF THEORETICAL AND PRACTICAL APPROACHES TO THE CONCEPT OF" SOFT POWER". Oriental Journal of History, Politics and Law, 3(03), 272-279.
11. Mamadjonov, A. B. O. G. L. (2021). TURKIYANING XALQARO TASHKILOTLARDAGI O'RNI VA ROLI: NATO MISOLIDA. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(9), 427-435.
12. Azimov, H. Y. (2022, June). THE ROLE OF THE SYRIAN CRISIS IN ENSURING SECURITY IN THE MIDDLE EAST. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 90-92).
13. Yakubovich, A. H. (2019). The emergence of the Syrian crisis and the impact of the external forces on it. Bulletin Social-Economic and Humanitarian Research, (4 (6)), 92-97.
14. Azimov, H. Y. (2022). Main directions of modern international security approaches. International journal of social science research and review, 5(2), 151-157.
15. Boronov, S. (2022). Internal and external factors of taliban origin. Journal of Social Research in Uzbekistan, 2(02), 15-23.